Soddalashgan ekvivalent sxemasidan (2,5) ko'rinib turibdiki, S ajratilgandan keyin S sig'imdan, R qarshilikdan va L_1 induktivlikdan iborat bo'lgan tebranish konturi xosil bo'ladi. Zanjirda yo'qotishlar bo'lmaganda, magnit energiyani elektr energiyaga aylantirish quyidagi tenglama yordamida tavsiyalash mumkin:

$$0,5 L_1 i_1 = 0,5 C U, \quad (26.18)$$

yoki

$$U_{1max} = i_1 (L_1 / C)^{0,5}. \quad (26.19)$$

Zanjirda yo'qotishlar hisobiga kuchlanish maksimal darajasiga eta olmaydi va D koeffitsientiga kam bo'ladi:

$$U_1 = D U_{1max} \quad (26.20)$$

D koeffitsienti quyidagi tenglamalardan topish mumkin:

$$D = e^{-x}; \quad (26.21)$$

$$x = [\arctg(4R^2 C / L_1 - 1)^{0,5}] / [(4R^2 C / L_1) - 1]^{0,5}. \quad (26.22)$$

(2.19) va (2.20) tenglamalar asosida birlamchi kuchlanish:

$$U_1 = i_1 D (L_1/C)^{0.5} \quad (26.23)$$

Ikkilamchi kuchlanish esa:

$$U_2 = i_1 (L_1/C)^{0.5} (w_2/w_1). \quad (26.24)$$

Bundan ikkilamchi cho'lg'amni o'ramlar sonini aniqlash mumkin:

$$w_2 = (U_2 w_1) / [i_1 (L_1/C)^{0.5} D]. \quad (26.25)$$

Dastlabki hisoblarni olib borish uchun impulsli transformatorni birlamchi chulg'amini quyidagi parametrlarini qabul qilamiz:

- cho'lg'amni balandligi 0,4 m;
- cho'lg'amni diametri 0,2 m;
- o'ramlar soni 800;
- birlamchi tokni uzish vaqtida kuchi 20 A;
- simni diametri 1,5 mm;
- cho'lg'amni aktiv qarshiligi 4,8 Om;
- induktivligi 0,19 Gn;
- kondensatorni sig'imi 10 mkF.

Ikkilamchi kuchlanishnini 35 kV gacha tarmoqlarda sinovlarni o'tkazish uchun 105 kV qabul qilamiz. D koeffitsientini taxmin qilib 0,6 qabul qilamiz.

Qabul qilingan parametrlar bo'yicha ikkilamchi cho'lg'amni o'ramlar sonini xisoblaganimizda 92700 o'ram chiqdi. Uramlarni sonini 100000 qabul qilamiz.

26.3. Induksion impulsli kuchlanishlar generatori tuzilishi va o'ning chikish xarakteristikalarini o'rganish

26.3.1. Sharli voltmetrni tuzilishi


SHarli voltmetr yordamida yuqori kuchlanishlarni o'lchashlarda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak [21]. SHarli voltmetrga ketma-ket R_0 qarshilik ulanishi shart. Sanoat chastotali yoki doimiy kuchlanishlarni o'lchashlarda $R_0 = 0,1 \dots 1$ Mom miqdorida bo'lishi lozim. Katta miqdori katta kuchlanishga ta'luqli. Bu qarshiliklar sharlarni yuzasini elektr emirilishlaridan va yukori chastotali tebranishlardan saklaydi. R_0 konstruksiyasi uning tashqi sirtidan razryadlarni utib ketishidan cheklashishi kerak. SHarli voltmetrni o'lchashlarni olib borish vaktida joylashtirish 2.5 rasmda va 26.1. jadvalda keltirilgan A va V o'lchamlarga mos bo'lishi shart.

SHarli voltmetrga ulanadigan simlar sharlardan kamida sharni diametrga baravar bo'lgan masofada ulanadi. Ulanadigan simlar sharlarni orasidagi o'kiga perpendikulyar joylashlar.

26.1-jadval. SHarlarni diametrlarga mos bo'lgan A va V o'lchamlari

SHarni diametri D,mm	A masofasi		V masofasi	
	Kam emas	Ko'p emas	$S < 0,5D$	$0,5D < S < 0,75D$
2...6,25	7D	9D	14S	7D
10...15	6D	8 D	12S	6D
25	5D	7 D	10S	5D
50...75	4D	6 D	8S	4D
100	3,5D	5 D	7S	3,5
150...200	3D	4 D	6S	3D

O'lchovlarni olib borishdan oldin bir nechta razryadlarni xosil qilish lozim. Bu tadbir sharlarni yuzasini o'lchovlar uchun tayerlash. O'lchovlarni olib borishdan oldin bir nechta razryadlarni xosil qilish lozim Razryadli kuchlanishlar 26.2. jadval GOST dan jadvallardan aniqlanadi, jadval



26.5-rasm. Gorizontali tipdagi standartli sharli voltmetr: 1 – izolyatorlar; 2 – sharlarni kotirish uchun sterjenlar; 3 – boshqarish mexanizmi va uning maksimal o'lchamlari; 4 – yukori kuchlanish sim va ketma-ket ulangan qarshilik; R – uchkun xosil

bo‘ladigan nuxta; A – R nuxtadan erlangan silliklikgacha masofa; V – sharli sirtni radiusi, uning ichida begona buyumlar bo‘lmasligi shart; D – sharni diametri; S – sharlar orasidagi masofa.



26.6-rasm. SHarlari 50 mm sharli voltmetrni umumiy ko‘rinishi: 1 – izolyator; 2 – potentsialli shar; 3 – erlangan shar; 4 - sharlarni orasidagi masofani rostlash uchun elektr motor; 5 – sharlarni orasidagi masofani o‘lchaydigan moslama.

26.2-jadval. SHarli voltmetrni standart atmosfera sharoitlarida teshilish kuchlanishlar

SHarlari orasidagi masofa,mm	2	333	4	5	6	8	10	12	15	16	20	24
Teshilish kuchlanishi, kV	8	11,2	14,3	17,4	20,4	26,3	30,7	37	46,5	48,1	57,5	65,5
SHarlari orasidagi masofa,mm	28	30	40	50	60	70	75	80	100	120	140	
Teshilish kuchlanishi,	88,5	107	138	150	155	174	195	229	276	229	276	

kV												
----	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Agar o'lchovlar nostandart atmosfera sharoitlarda olib borilsa, bunda xaqiqiy razryadli kuchlanishni aniqlapsh uchun jadvaldan aniqlangan razryadli kuchlanish tuzatish koefitsientiga ko'paytiriladi:

$$U_{p.x} = kU_p \quad (26.26)$$

bunda U_p – jadvaldagi razryadlash kuchlanishlar;

k – tuzatish koefitsienti, σ ga bogliq :

$\sigma \dots$	0,70	0,75	0,80	0,85	0,90	0,95	1,00	1,05	1,10	1,15
$k \dots$	0,72	0,77	0,82	0,86	0,91	0,95	1,00	1,05	1,09	1,13

Havoni solishtirma zichligi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\sigma = (p/p_0)(T_0/T), \quad (26.27)$$

bunda p_0 va T_0 – havoni normal bosimi va harorati;

p va T - o'lchash vaqtida xavoni bosimi va harorati.


26.5. rasmda keltirilgan o'lchamlari bo'yicha sharlari 50 mm bo'lgan sharli voltmeter ishlab chiqildi va tayyorlandi. SHarli voltmetrni umumiy ko'rinishi 26.6. rasmda keltirilgan.

SHarli voltmeter ishlab chiqilganda, sharlarni orasidagi masofani masofadan turib o'zgartirish hisobga olingan. Buning uchun sharlar orasidagi masofani o'zgartirish reversiv elektr yuritma ishlatilgan. (26.6-rasm, 4). Masofadan turib sharlar orasidagi masofani aniq kurish uchun, o'lchov shkalasi ionli lampalar bilan yoritiladi va linza 5 yordamida nazorat qilinadi.

26.3.2. Induksion impulsli kuchlanishlar generatorni tuzilishi

IIKG tuzilish sxemasi 26.6 rasmda keltirilgan. IIKG transformator moy 3 bilan to'ldirilgan 4 bakda joylashtirilgan. IIKGni cho'lg'amlari 12 izolyatorli diskga o'rnatilgan. Ikkilamchi cho'lg'am 9 ikkita ketma-ket ulangan bo'limlardan iborat. Xar bir bo'limni o'ramlar soni 50000. Umumiy o'ramlar soni 100000. Bu o'ramlar sonini ko'pligi tufayli qilingan va ichki sig'im kamaytirishga olib keladi. Ichki sig'im cho'lg'amlarda energiyani yo'qotishga olib keladi. Ikkilamchi cho'lg'am ko'p qavatli elektrotexnika qogoz (10) bilan elektrotexnika po'latli yaproqlaridan echilgan

o'zakdan 11 izolyasiyalangan. Ikkilamchi cho'lg'amlar tashqi sirtidan ko'p qavatli elektrotexnika qogoz 8 bilan qoplangan va unga birlamchi cho'lg'am 7 o'ralgan. Birlamchi cho'lg'amni ustidan bir qavat elektrotexnika po'latli ekran 6 o'ralgan. Ekranni vazifasi elektromagnit energiyani oqib ketishini cheklaydi. 12 disk 6 shpilkalar yordamida IIGni dielektrik qopqog'iga 2 maxkamlanadi. YUqori kuchlanish impulsar izolyator 1 yordamida bakdan chiqazilgan. Birlamchi cho'lg'am 700 o'ramdan iborat va diametri 1,5 mm mis simdan o'ralgan. IIMG umumiy ko'rinishi 26.8. rasmda ko'rsatilgan.



26.7- rasm. IKG generatorni tuzilishi



26.8- rasm. IKG generatorni cho'lg'amlarni ko'rinishi



26.9. rasm. IKG generatorni umumiy qo'rinishi.

disk shpilkalar yordamida IIGni dielektrik qopqog'iga maxkamlanadi Yuqori kuchlanish impulsar izolyator yordamida bakdan chiqazilgan.

26.3.3. Induksion impulsli kuchlanishlar generatorni chiqish parametrlarini aniqlash

IIKGni parametrlarini aniklash 26.10 rasmda keltirilgan stenda bajarildi. Stendni asosiy taminlash manbasi RLNO tipdagi avtotransformator T dan iborat. RLNO ni ikkita 0...250 B chiqishlari VD1 va VD2 ko'priki to'g'irlagichdan doimiy kuchlanish IIGni birlamchi cho'lg'amiga va zaryadlash tokni ajratgichni elektr yuritmasini elektr motorga M ulangan.

YUKL boshkarish stendining orqa tomondagi joylashgan kontaktli moslamalarga sharli voltmetr, RLNR tipdagi avtotransformator va IIG ulanadilar. IIG generatorni chiqishiga sharli voltmetrni izolyasiyalangan shari ulanadi. Voltmetrni boshqa shari erlanadi. YUKL eshigi yopiladi va boshqarish stendi tarmog'iga ulashga tayyorlanadi.


Boshqarish stendidan sharli voltmetrni xarakatchan sharini S2 kalit bilan xarakatga keltiriladi va eng katta masofa o'rnatiladi.

QF1 avtomatik o'chirgich ulanadi va RLNO ni chap buragichi bilan PV1 voltmetrda V kuchlanish o'rnatiladi. RLNO o'ng buragichi aylantiriladi va PV2 voltmetrda V kuchlanish o'rnatiladi. SHarli voltmetrni xarakatchang sharini S1 kalit bilan yurgizilib sharlar orasidagi masofa kamaytiriladi. 26.2. jadvaldan impulsli kuchlanishni amplituda miqdori aniqlanadi.

26.3- jadval. IIKG chiqishida kuchlanishni amplitudasini kirishdagi kuchlanishga bog'liqligi

Kirish kuchlanishi, V	Ajratish toki, A	SHarlar orasidagi masofa, mm	YUqori kuchlanish amplitudasi, V
10	2.12	8	26300
20	2,55	12	37600
30	6,38	20	57500

40	8,51	28	88500
50	10,64	40	123800
60	12,76	60	155000
70	14,89	75	195000



26.10- rasm. Tajriba stendi sxemasi

Olingan natijalar bo'yicha quyidagi xulosalar qilish mumkin. Hisoblar bilan aniklangan IIKG parametrlari bo'yicha ishlab chiqilgan generatorni parametrlari hisoblarda qabul qilingan 105 kV kuchlanishni o'rniga 195 kV kuchlanish olindi. Bu kuchlanish yuklamasiz olindi. Albatta yuklama qo'shilganda kuchlanish pasayadi va generatorni 35 kV gacha elektr tarmoqlarda ishlatilishi mumkin. 35 kV tarmoqlarni sinovlar uchun ishlatiladigan T-150 sinash transformatorini og'irligi IIKG dan 12,5 marta ko'proq.

26.4. Elektrotexnik hodimning vazifalari, uning tayyorgarligi va javobgarligi

Elektrotexnik hodim o'z korxonasining texnologik xususiyatlarini va uning xalq xo'jaligi uchun ahamiyatini aniq tasavvur etishi kerak.

Elektrotexnik hodimning vazifasi davlat, mexnat va texnologik intizomini har tomonloma mustahkamlash va ularga qat'iy rioya qilishdan, texnik ekspluatatsiya qoidalari, uning ish o'rniga taalluqli bo'lgan xavfsizlik texnikasini mustahkam bilishdan hamda vijdonan bajarishdan, shuningdek, xizmat qiladigan korxonada, uchastkada joriy etilgan yong'in xavfsizligi qoidalarini bilish va bajarishdan iborat.

Elektrotexnik hodim elektr uskunalaridagi jixozlarni montaj qilishni, operativ xizmat ko'rsatishni, remont qilish va sozlashni amalga oshiradi.

Elektr uskunalariga operativ xizmat ko'rsatish shundan iboratki, bunda xodim elektr jihozni qarab chiqishni va ularni operativ qayta ulashni, montaj qilish va remont uchun ish o'rnini tayyorlashni hamda remont qiluvchi xodimni ana shu ishlarga qo'yishni, shuningdek, ba'zi boshqa ishlar va ko'zdan kechirishlarni bajaradi. Operativ xizmatni operativ va operativ-remont qiluvchi xodim ko'rsatadi. Sanoat korxonasida elektr uskunaga smena bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi va operativ qayta ulashga ruxsat etilgan kishilar operativ xodim hisoblanadi. Bir necha podstantsiyalar yoki uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi navbatchi mashinada yuruvchi operativ xodim deyiladi. U navbatchilik qiladigan joyidan ish joyiga mashinada borib keladi.

Jihozlarni joriy va kapital remont qilishni, sozlashni remont va sozlovchi xodim bajaradi. Maxsus ta'lim olgan, ish o'rinlarida stajirovkadan o'tgan va operativ ish bo'yicha bilimi tekshirilgan montaj qiluvchi va sozlovchi xodimlarga operativ xodim huquqi berilishi mumkin. Bunda ular operativ-remont qiluvchi xodim hisoblanadilar.

Navbatchi va operativ—remont qiluvchi xodim mustqil ishga tayinlashidan oldin nazariy tayyorgarlikdan o'tadi, ish o'rnida o'rgatiladi, uning ish o'rin uchun kerak bo'ladigan hajmda texnika ekspluatatsiya qoidalarini (PTE) ni va xavfsizlik texnikasi qoidalarini (PTB) instruksiyalarni o'zlashtiradi.

O'rgatish tamom bo'lgandan so'ng malaka komissiyasi yangi xizmatchining xavfsizlik texnikasi qoidasiga oid bilimini tekshiradi va unga malaka gruppasini beradi. Elektr uskunalarda ishlovchi xodimlar uchun beshta malaka guruxi belgilangan. Ulardan eng yuqorisi V gurux hisoblanadi. Barcha beshta gurux uchun malaka xarakteristikasi va elektr ustanovkaga xizmat ko'rsatuvchi xodimga quyidagi talablar qo'yiladi:

V gurux. O'z uchastkasining sxemasini va undagi jihozni, ham umumiy, ham mahsus xavfsizlik qoidalarini bilishi kerak. Ishni xavfsiz bajarishni tashkil etib, nazorat qila olishi lozim. Elektr tokidan shikastlangan odamga birinchi yordam ko'rsatish qoidasini va unga amalda yordam qila olishni bilishi kerak. Xodimlarga xavfsizlik texnikasi va birinchi yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgata olishi lozim. Bunday guruxga maxsus o'quv yurtini bitirgan, elektr uskunalarda kamida yarim yillik ish staji bo'lgan, yoshi 19 dan kichik bo'lmagan masterlar, texniklar, injenerlar, shuningdek, elektr uskunalarda ko'p yillik ish staji bo'lgan yoshi 20 dan kam bo'lmagan montyorlar, elektr slesarlar, injener-praktikantlar kiradi.

IV gurux. Elektrotexnika va birinchi yordam qoidalarini ixtisoslashtirilgan hunar-texnika bilim yurti xajmida, xavfsizlik texnikasi qoidalarining barcha bo'limlarini bilishi, elektr uskunani bema'lol qayta ulay oladigan bo'lishi kerak. Brigadadagi ishlaydigan a'zolari nazorat qila olishi, kuchlanishi 1000 V va undan yuqori bo'lgan elektr uskunalarda ishni xavfsiz tashkil eta olishi lozim. Bu guruxga elektr uskunlardagi ish staji 1 yil bo'lgan yosh injener va texniklar, operativ hamda operativ-*remont qilish xodimlari kiradi.

III gurux. Bu guruxga IV guruxdagi talablar qo'yiladi, biroq elektrotexnikaga oid elementar bilimga ega bo'lish etarli. Ish staji kamida 6 oy bo'lishi kerak.

II gurux. Elektr uskuna va elektr toki xavfi to'g'risida elementar tushunchaga ega bo'lishi kerak. Asosiy ehtiyot choralarini va birinchi yordam qoidalarini bilishi lozim. Bu guruxga bir yillik ish stajiga ega bo'lgan elektromontyorlar kiradi.

I gurux. Bu guruxga elektr uskunalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, biroq elektrotexnikaga oid bilimlarga ega bo'lmagan, elektr tokining xavfi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, xavfsizlik texnikasi qoidalariga oid bilimi tekshiruvdan o'tmagan shaxslar kiradi.

Bilimi tekshirilgandan so'ng operativ va operativ-remont qiluvchi xizmatchi, ishning murakabligiga qarab, ikki haftadan to'rt haftagacha stajirovka o'taydi. Bu vaqtda u dublyor vazifasini bajaradi – tajribali asosiy navbatchi rahbarligida ishlaydi. Bunda dublyor ham, uni tekshiruvchi xodim ham jihozlarning ishiga teng darajada javob beradilar. Yangi xizmatchi faqat stajirovkadan keyingina mustaqil operativ ishga qo'yilishi mumkin.

Stajirovkaga va mustaqil ishga qo'yish mahsus buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Bunda xizmatchi xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha sinovdan o'tganligi haqida, albatta qayd qilinadi. Stajirovka vaqtida ish joyidagi xavfsizlik texnikasiga javobgarlik stajerga ham, uni kontrol qiluvchi shaxsga ham yuklanadi.

Kundalik ish protsessida xodim muntazam ishlab chiqarish ta'limini oladi va xavfsiz ish metodini o'rgatadi.

-Operativ va operativ-remont qilish xodimlari uchun quyidagi majburiy ta'lim formasi belgillangan:

- a) ish joyida (faqat ishchilar uchun) PTE, PTB va instruksiyalar bo'yicha kamida bir oyda bir marta instruktaj o'tkazish;
- b) har kvartalda kamida bir marta avariyaqa qarshi mashq o'tkazish;
- v) ishlab chiqarishdan ajralgan xolda, xizmat vaqtidan keyin yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim kursini o'tish;
- g) ta'lim kursini o'tishning davri va davomiyligini korxona rahbari belgilaydi.

Remont qiladigan ishchilar uchun ish joyida instruktaj (shu bilan yong'inga qarshi) va kurs ta'limini olish majburiy. YUqori malakali ishchilar uchun tematik leksiyaqlar tashkil etiladi. Instruktajni sex, rayon, podstansiya, laboratoriya, smena, uchastkalarining rahbarlari va masterlar ish vaqtida o'tkazadilar. Instruktaj o'tkazishdan maqsad – har qaysi ishchini xavfsiz ish metodlariga, jixozlarga mexanik xizmat ko'rsatishga, ish sharoitida instruksiya va qoidalarni qo'llashga o'rgatishdan iborat. Bunda xodimlarning PTE va PTB bo'yicha bilimlari ham tekshiriladi.

Ishchilarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha bilimlari: dublyor bo'lib yangidan ishga tushuvchi shaxslarda ishga tushishdan oldin; ko'pdan ishlayotganlarda davriy; qoida yoki instruksiyalarni buzgan , avariyaqa qarshi mashqlarni qoniqarsiz bajargan shaxslarda navbatdan oldin tekshiriladi.

Elektrotexnik xodimning xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha bilimi har yili tekshiruvdan o'tkaziladi. Tekshiruv natijalari jurnalga yoziladi. Imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan xizmatchiga komissiya raisning imzosi qo'yilgan tekshiruv o'tkazganligi haqida guvoxnoma beriladi. Guvoxnomada xizmatchining familiyasi, ismi, sharifi va lavozimi, bilimni tekshirish sababi, baho hamda malaka gruppasi, maxsus ishlarni bajarish huqiqi qursatiladi.

Xizmatni o'tish vaqtida xodimning guvohnomasi o'zida bo'lishi kerak. Navbatdagi tekshiruv muddati kelishi bilan guvoxnoma o'z kuchini yo'qotadi.

26.5. Sinash laboratoriyalarda ishlash vaqtida elektr xavfsizlik qoidalar

Ta'riflar: sinash stendi – maxsus ta'minlangan laboratoriyani bo'limi va boshqarish pultidan, sinash maydonidan, ulash punktidan, taqsimlash moslamadan, sinash uchun mo'ljallangan moslamalardan tuzilgan.

Boshqarish pulti – sinovlarni boshqarish va nazorat qilish uchun, kommutatsiya apparatlar, o'lchov priborlar va signalizatsiya bilan ta'minlangan maxsus moslama;

Sinash maydoni – sinashlarni olib borish vaqtida sinaladigan uskunani joylashtiriladigan bo'lim;

O'lash punkti - sinaladigan moslamani sinash manbasi bilan ulash uchun mo'ljallangan moslama;

Sinash sxemasi – vaqtincha kabel va simlar yordamida sinaladigan moslamani sinash manbasi bilan ulash;

1. Sinash laboratoriyasida xamma sinash stendlarini sxemalari mavjud bo'lishi shart. Xamma elementlar sxemalar bo'yicha belgilanganday aniq markirovkaga ega bo'lishlari kerak.

2. Sinash laboratoriyani doimiy ulash sxemalarda o'zgarishlarni faqat uskuna bo'yicha mas'ul shaxsni ruxsati bilan o'zgartirilishi mumkin va xamma o'zgarishlar chizmalarda va sxemalarda belgilashlari kerak.

3. Izolyasiyalangan yoki ochiq tok o'tkazish qismlariga tegib ketmasligini oldini olish uchun sinash maydoni vaqtincha yoki doimiy to'siq bilan chegaralanishi shart.

4. Sinash moslamalarini va sinash uskunalarini tok o'tkazish qismlaridan erlangan to'siklar va devorlarga masofalar quyidagilardan kam bo'masligi kerak.

a) impulsli kuchlanishlar uchun:

100 kV gacha – 0,5 m;

1000 kV gacha – 2,5 m;

150 kV gacha – 0,75 m;

1500 kV gacha – 4,5 m;

400 kV gacha – 1,0 m;

2000 kV gacha – 5,0 m;

500 kV gacha – 1,5 m;

2500 kV gacha – 6,0 m;

b) sanoat chastotali (effektiv kattaligi) va doimiy kuchlanishlar uchun:

6 kV gacha – 0,17 m;

100 kV gacha – 1,0 m;

10 kV gacha – 0,23 m;

250 kV gacha – 1,5 m;

20 kV gacha – 0,3 m;

400 kV gacha – 2,5 m;

50 kV gacha – 0,5 m;

800 kV gacha – 4,0 m.

Izox: vaqtincha to'siklargacha masofalar ikki marta katta bo'lishi kerak.

5. Ochiq o'rnatilgan kenatron lampalardan foydalanganda xodimlarni zararli rentgen nurlaridan ximoya qilish uchun qalinligi 0,5 mm dan kam bo'lmagan metalli ekranlar qo'yilishi kerak.

6. Sinash maydonini va stendlarni to'siklarida eshiklari bo'lishi kerak va ular blokirovka, signalizatsiya va plakatlar bilan ta'minlanishlari kerak.

7. Sinash maydoniga kuchlanishni berilishi yorug'lik yoki tovush signali bilan ogoxlantirilishi kerak.

8. Izolyasiyani elektr mustahkamligini sinash uchun muljallangan transformatorlar avtomatik uchirgichlar bilan va tokni chegaralovchi qarshilik bilan ta'minlanishlari shart.

9. Sinash laboratoriyani boshqarish pultrlari signal lampalar bilan ta'minlanishlari kerak va ular quyidagi zanjirlarga ulanadilar:

a) ulash punktlariga kuchlanishni beradigan apparatlar;

b) laboratoriya to'sikni eshigini blakirovkasi.

10. Katta sig'implarga ega bo'lgan moslamalarni sinash uchun qoldiq zaryadlarni olish uchun moslama bilan ta'minlanishi kerak;

11. Sxemalarni yig'ish kuchlanishni ulash punktlaridan to'liq olingandan keyin va o'qituvchi nazarati ostida bajariladi.

12. Sinovlarni boshlashdan oldin o'qituvchi quydagilarni bajaradi:

- sxemani to'g'ri yig'ilganligi;
- sxemani xamma elementlarini erlanganligini va ularni ishonchligi;
- ximoya vositalarni borligi;
- sinash maydonda odamlarni yo'qligi.

Izox: sinash maydonga talabalarni qo'yish fakat o'qituvchini shaxsiy nazorati ostida bajariladi.

DIQQAT! Sinash maydoniga kuchlanishni berish va sinovlarni o'tkazish texnika xavfsizlik bo'yicha IV yoki V guruxga ega bo'lgan va yuqori kuchlanish bilan sinovlarni o'tkazishga "Ruxsati" bo'lgan shaxs bajaradi

13. Sinash maydoniga kuchlanishni berishdan oldin o'qituvchi yorug'lik yoki tovushli signal beradi va og'zaki "KUCHLANISHNI BER'YAPMAN" deb ogoxlantiradi.

14. Blakirovka yoki signalizatsiya ishlamaganda sinovlarni olib borish taqiqlanadi.

15. Sinash laboratoriyani elektr tarmoqga ulash zanjirida ikkita uchirgich bo'lishi kerak, ulardan bittasi qo'rinarli. Sinash sxemalarni yig'ilganda sinash transformatorni chiqishi erlangan bo'lishi kerak.

16. Elektrotexnika laboratoriyasida ishlar o'quv dasturni bajarish tarkibida bajariladi.

17. Tajriba ishlarni bajaradigan talabalar sinovlar tugamaguncha ishlash joyini o'qituvchini ruxsatisiz tashlab ketishi taqiqlanadi.

18. Talabalar "Xavfsizlik texnikasi" va "Ekspluatatsiya texnikasi" qoidalari bo'yicha bilimlarini nazoratidan o'tishadi va elektrotexnika laboratoriyasida ishlarni bajarish uchun "Ruxsat" olishadi.

19. O'kuv laboratoriyada 1000 V dan oshiq kuchlanishda ishlarni bajaradigan talabalar soni 8 kishidan bitta o'qituvchiga oshmasligi kerak.

26.6. Elektrotexnika laboratoriyasini tuzilishi

Elektrotexnika laboratoriyasini (ETL) prinsipial sxemasi 26.10 rasmda ko'rsatilgan. ETL tarmoqni bitta fazasiga ulanadi. Texnika xavfsizlik koidalari bo'yicha ETL ko'rinarli ajratkich bilan ta'minlanishi shart (S1). S1 dan keyin QF1 avtomatik o'chirgich ulangan. ETL ekspluatatsiya qilish vaktida xavfsizlikni

ta'minlash uchun sinash maydonining kirish eshigiga SB bloklash kontakti va boshqarish pultida SK kalit bilan qo'shiladigan kontakt o'rnatilgan. ETLga kuchlanishni berish uchun sinash maydonig eshigi yopiladi va kalit bilan SK kontakti qo'shiladi. Undan keyin SB2 qo'shish knopkasi bosilganda KM magnit ishga tushirgich kuch tarmog'ida o'zining KM kontaktlarini ulaydi va ETLga kuchlanish beriladi. Kuchlanish berilgani PV voltmeter va HL1 signal lampochkadan nazorat qilinadi.

Sanoat chastotali 70 kV yuqori kuchlanish AII-70 sinash moslamadan olinadi. AII-70 T1 avtotransformatordan, QF2 avtomatik o'chirgichdan va T2 ko'paytiruvchi transformatoridan tuzilgan. AII-70 tarmoqqa ulash S2 paketli qo'shgich bilan bajariladi. Kuchlanishni miqdori T2 transformatorni birlamchi cho'lg'amiga ulangan PV2 voltmeter bilan nazorat qilinadi. PV2 shkalasi transformatorni chiqishidagi yuqori kuch lanishiga belgilangan. O'lchovlarni aniqligini nazorat qilish uchun PV2 paralel aniqligi 0,1 ga ega PV1 voltmeter ulanishi mumkin. YUqori kuchlanishni bevosita o'lchashni PV3 S100 tipdagi kilovoltmeter yordamida bajariladi.


Impulsli va o'zgaruvchan kuchlanishni amplitudasini o'lchash uchun sharli voltmeter ishlatiladi. SHarli voltmetrni boshqarish sxemasi tarmoqqa ulash QF3 avtomatik uchirgich bilan bajariladi. Bunda boshqarish panelida LH3 signal lampasi yonadi. SHarli voltmetrni shkalasi L neonli lampalar bilan yoritiladi. Neon lampalar tarmoqqa S3 qo'shgich va R rezistor orkali ulanadi. Xarakatchang sharni yurgizish M1 reversli elektr motor orqali bajariladi. Revers S5 qayta uchirgich bilan bajariladi. Motor tarmoqqa S4 qo'shgich bilan bajariladi. S2 kondensator M1 motorga beriladigan kuchlanishni 127 V gacha pasaytirib beradi. S1 va S3 kondensatorlar M1 motorda beriladigan tokni faza bo'yicha siljitish va reversni amalga oshirishga xizmat qiladi.

200 kV impulsli kuchlanishni olish uchun TI impulsli transformator ishlatiladi. Impulsli kuchlanishni olish sxemasi QF4 avtomatik o'chirgich bilan ximoyalangan. Unga RND-250 tipdagi avtotransformator T3 ulangan. Uning ikkita chiqishini bittasiga M2 elektr motor ulangan. M2 elektr motor IT zaryadlash zanjirdagi K kalitni xarakatga keltiradi. M2 doimiy tok elektr motori va uning

aylanish tezligi T3 da kuchlanishni rostdlash bilan bajariladi va VD1 to'g'irlagich orkali beriladi.

Bu kuchlanish PV6 voltmeter orqali nazorat qilinadi. IT ga kuchlanish T3 ni ikkinchi chiqishidan VD2 to'g'irlagich orqali beriladi va PV7 voltmeter bilan nazorat qilinadi. S4 kondensator K kalitda uchkunlarni o'chirish uchun mo'ljallangan.

O'zgaruvchan kuchlanishni 6 kV gacha va doimiy kuchlanishni 50 kV gacha olish uchun boshqarish panelida T4 avtotransformator o'rnatilgan. T4 avtomatik o'chirgich QF5 bilan ximoyalangan va unga kuchlanish berilganligi HL5 signal lampasi ogoxlantiradi. Avtotransformatorni T4 3 va 4 klemmalariga NOM-6 tipdagi kuchlanish transformatori T5 ulanganda 6 kV o'zgaruvchan tok olinadi yoki yukori doimiy tok manbasi ulanganda



26.10. rasm. Elektrotexnika laboratoriyani prinsipial elektr sxemasi.


50 kV doimiy kuchlanishni olinadi. YUqori kuchlanish manbasi ko‘paytiruvchi transformator T6 va kuchlanishni ko‘paytirib beruvchi to‘g‘irlagichdan tuzilgan (S5, VD3, VD4).

27. EKSPRESS DIAGNOSTIKA USULINI LABORATORIYA VA ISHLAB CHIQUARISH SINOVLARI

27.1. “Ekspress diagnostika” usulini laboratoriya sinovlari

Sinovlarda IIKG chiqishidagi kuchlanishni ko‘rinishi uning chiqishida yuklama yoqligida, yuklama yuqori kuchlanish kabeli va kabelga paralel aktiv qarshilik ulanganda tekshirildi. Eksperimental tadqiqotlar 27.1 rasmda keltirilgan sxemasi buyicha o‘tkazildi.

Sxemaga beriladigan kuchlanish RLNO-250 tipdagi avtotransformator va V50 tipdagi diodlardan yig‘ilgan diodli ko‘prikdan berildi. IIKGni (T) birlamchi zanjirini zaryadlash uchun S ajratgich xizmat qiladi. Ajratgichga, zanjirni uzish vaqtida uchkunlar miqdorini kamaytirish uchun, paralel S kondensatori ulangan.




27.1.- rasm. IIKG chikishidagi kuchlanishni ko‘rinishi uning chiqishida yuklama yoqligida, yuklama yuqori kuchlanish kabeli va kabelga paralel aktiv qarshilik ulanganda aniqlash uchun stendni sxemasi

Kondensatorni sig'imi 0,1 mkF. Zaryadlash zanjirida zaryadlash tokini nazorat qilish uchun Rsh shuntlovchi qarshilikga otsillografni ulash uchun 10 va 11 shtepselli raz'emlar mavjud.

IIKGni chiqishida kuchlanishlarni ossillograflash Rb1.....Rbp kuchlanishni bo'lgichi ulangan. Rbp qarshilikga (8 va 9 shtepselli raz'emlar)

ossillograf ulanadi. Sinovlarni uzunligi 5 m 10 kV kabelda olib borilgan. Kabelni 5 va 6 chiqishlari erlanadi, 4 chiqishiga esa IIKG dan impulsli kuchlanish beriladi. Kabelni ximoya qiluvchi o'rami xam erlanadi. Sinovlarni uchta variantlari tekshirildi. Birinchi variantida IIKGni chiqishiga yuklama ulanmagan edi. Ikkinchi variantida IIKG chiqishiga (1- nuqta) kabelni bitta simi ulandi (2-nuqta). Uchinchi variantida IIKG chiqishiga kabelga paralel aktiv qarshilik Ryu ulandi (3-nuqta).




27.2.-rasm. IIKGni chiqishiga yuklama ulanmaganda uning chiqishidagi kuchlanishni ossillogrammasi

27.2. rasmda IIKGni chiqishida yuklama ulanmaganda kuchlanishni o'zgarishini ossillogrammasi ko'rsatilgan. Ossillogramma bo'yicha kuchlanishni o'chish 2 davridan ortiq vaqt ichida o'tadi. Bunda kuchlanishni amplitudasi 23 kV tashkil etgan, chastotasi esa 125 Gs.


IIKGni chiqishiga kabel ulanganda (27.3. rasm) kuchlanishni tebralanishi 1 davr ichida o'chadi. Kuchlanishni amplitudasi 19 kV, chastotasi esa 71 Gs.

IIKGni chiqishiga kabel bilan paralel aktiv qarshilik ulanganda kuchlanishni o'zgarishi tubdan o'zgaradi (27.4. rasm), ya'ni kuchlanishni tebranish jarayoni

umuman yoʻkoladi va trapetsiya koʻrinishga oʻtadi. Bunda kuchlanishni amplitudasi 17 kV va uning oʻchish vaqti 20 ms tashkil qildi.



27.3-rasm. IIKGni chiqishiga kabel ulanganda uning chiqishidagi kuchlanishni ossillogrammasi



27.4-rasm. IIKGni chiqishiga kabel va aktiv qarshilik ulanganda uning chiqishidagi kuchlanishni ossillogrammasi

Olingan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari boʻyicha yuqori kuchlanish izolyasiyani xolatini uchta koʻrsatgichlar asosida baxolash mumkin:

- Kuchlanishni o'zgarishini ko'rinishi;
- Tebranish chastotasi;
- Kuchlanishni amplitudasi.

Bulardan eng soddasi va murakkab moslamalarni talab qilmaydigan usul bu kuchlanishni amplitudasi bo'yicha izolyasiyani xolatini baxolash. Bu usul asosida "Ekspress-diagnostika" usulni ishlab chiqarish sinovlari olib borildi.

27.2. "Ekspress-diagnostika" usulini ishlab chiqarish sinovlari

"Ekspress-diagnostika" usulini ishlab chiqarish sinovlari Toshkent viloyati Parkent Tuman Elektr Tarmoqlar Korxonasida o'tkazilgan. Sinovlar natijasi bo'yicha tuzilgan "Dalolatnoma" magistrlik ishini ilovasida keltirilgan. Ishlab chiqarish sinanovlarida 27.9. rasmda ko'rsatilgan sxema ishlatilgan. Sinovlarni o'tkazish usuli IIKG chiqishdagi yuklamasiz impulsli kuchlanishni amplitudasini yuklama ulanganda kuchlanishni amplitudasini kamayishi buyicha izolyasiyani xolatiga xulosa beriladi.

Sinaladigan ob'ekti IIKG chiqishiga ulanadi. Sinaladigan ob'ektini izolyasiyasini xolatini aniklash uchun impulsli kuchlanishni amplitudasi sharli voltmetr yordamida o'lchanadi. Sharldi voltmetrni sharlarni orasidagi masofa bo'yicha 27,2. jadvaldan impulsli kuchlanishni amplitudasi aniqlanadi.

Aniqlangan kuchlanish U_A quyidagi kuchlanish bilan solishtiriladi:

$$U_2 = 143i[0,19/(0,00001+20408C_2)]^{0,5}, \quad (27.1.)$$

bunda i – IIKGni ajratish toki, A (2.3.jadvaldan olinadi);

S_2 – sinaladigan kabelni sigimi, F.

27.1- jadval. 10 va 6 kV kabellarni sig'implari.

Kabelni simini kesim yuzasi, mm ²	Sig'imli o'tkazuv- chanligi, 10 ⁻⁶ Sm/km		Kabelni umumiy sig'imi, 10 ⁻⁸ F/km		Kabelni bitta simini sig'imi, 10 ⁻⁸ F/km	
	10 kV	6 kV	10 kV	6 kV	10 kV	6 kV
3x25	72,2	88	22,9	28	7,63	9,33
3x35	85	97,2	27	30,9	9	10,3
3x50	91	114	28,9	36,3	9,63	12,1

3x70	97,5	127	31	40,4	10,33	13,47
3x95	110	134	35	42,6	11,67	14,2
3x120	116	146	36,9	46,4	13,3	15,47
3x150	138	162	43,9	51,6	14,63	17,2

27.1. tenglama 2.24. tenglamani kayta ishlash natijasida topilgan.

Kabel sinovdan o'tganligi quydagi shart bajarilganda hisoblasa bo'ladi:

$$U_2 \geq 0,9 U_A.$$

Sinash natijalari mavjud bo'lgan yukori doimiy kuchlanish bilan sinash natijalari bilan solishtirilgan.

Sinovlarni natijalari bo'yicha "Ekspress-diagnostika" usulini natijalari doimiy kuchlanish bilan sinovlar natijalari bilan bir xil. Lekin sinash vaqti bo'yicha yangi usul yordamida sinovlarni 0,2 soatda bajariladi. Eski usul bo'yicha – 1,5 soat. YAngi usulda ishlatiladigan moslamalar kichik o'lchamli bo'lib, "Damask" tipdagi mikroavtobuska joylashtirish mumkin.

YAngi sinash usulni yillik iqtisodiy samaradorligi, fakat Parkent TET korxonani kabellarini sinashda ishlatilsa, 16344,4 ming so'mni tashkil qiladi.

Ishlab chiqilgan usulni ishlab chikarishga keng qo'llash uchun quyidagi o'zgarishlar kirgizish kerak:

27.2 -jadval. "Ekspress-diagnostika" usulini ishlab chiqarishda sinashlarni natijalari

Kabe- lni marka- si	Ishchi kuchla- nishi, kV	Uzun- ligi, km	Sig'i- mi, 10 ⁻⁸ F	YUqori kuchlanish bilan sinash natijasi	Xisob- langan kuchla- nish, kV	O'lchan- gan kuchla- nish, kV	YAngi usul bilan sinash natijasi
3x50	10	0,015	0,114	YAroqli	56,2	50,7	YAroqli
3x70	10	0,375	3,87	YAroqli	23,45	21,6	YAroqli
3x95	6	0,17	2,41	YAroqli	17,75	16,5	YAroqli
3x120	6	0,023	0,36	YAroqli	43,53	42,6	YAroqli

3x95	10	0,237	2,77	YAroqsiz	27,65	16,5	YAroqsiz
3x70	10	0,015	0,155	YAroqli	48,56	45	YAroqli
3x50	6	0,376	4,54	YAroqsiz	12,99	10,1	YAroqsiz
3x50	10	0,225	2,17	YAroqli	31,17	29,7	YAroqli
3x120	10	0,025	0,33	YAroqsiz	48,75	27,6	YAroqsiz

1. Moshinani elektr sistemasida ishlashini ta'minlash zarur.
2. SHarli voltmetr bilan sinashlarni o'tkazish ko'p vaqtni va dastlabki matematik hisoblarni talab qiladi.
3. Sinovlar natijalarini avtomatik ravishda ishlov berish va aniq xulosa berishni mikroprotsessorlar zimmasiga yuklanilishi kerak.

27.3 Izolyasiya holatini tebranish konturida kuchlanishni o'zgarish jarayonini taxlili bo'yicha aniqlash

Ishimizni 2 bobida o'tkazilgan nazariy tadqiqotlarida IIKG ning ikkilamchi cho'lg'ami va izolyasiya sig'imi orasida LC-tebranish konturida xosil bo'ladigan jarayon izolyasiyani holatiga bog'lik bo'lgani aniqlandi. Nazariy tadqiqotlar ishimizni bajarilgan eksperimental tadqiqotlarida tasdiklandi. Lekin olingan ossillogrammalar bo'yicha avtomatik tarzda izolyasiya holati bo'yicha xulosa kilish mumkin emas. Buning uchun tadqiqotlarni zamonoviy o'lchov vositalar va kompyuterlardan foydalanish bilan izolyasiya holatini aniqlash uchun bajarildi.


Tadqiqotlarni «Hantek» turdagi USB ossillografik pristavkasi yordamida bajarildi (27.4.rasm).



27.4-rasm. «Hantek» turdagi USB ossillografik pristavkasini umumiy ko‘rinishi

«Hantek» turdagi USB ossillografik pristavkasini imkoniyatlari:


- ❖ Maksimal chastotasi: 48MSa / s
- ❖ Xotirani chuqirligi: 1Mbyte / kanal
- ❖ Fure funksiyani tezkor qayta ishlash (FFT);
- ❖ 20 avtomatik o‘lchovlar;
- ❖ Kursorni avtomatik o‘lchash va baxolash;
- ❖ Ossillogrammalarini saqlash;
- ❖ Siljish kolibrovkani foydalanuvchi tomonidan tanlash;;
- ❖ Qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish. Matematik funksiyalar;
- ❖ Iste’molchi tomonidan tanlangan interfeys kerakli tillarda.



27.5-rasm. Izolyasiya holatiga paralel va ko'shma qarshiliklarini ulanganda, tebranish konturida o'tadigan jarayonlarni o'rganish uchun standni sxemasi


Eksperimental tadqiqotlar IPU-10/630-7.5 o'tish izolyatorida o'tkazildi. Tadqiqotlarni o'tkazish uchun 27.5-rasmda keltirilgan sxema egildi. Sxemada izolyatorga ketma-ket R1 qarshilik ulangan. R2 qarshilik izolyatorga paralel ulangan. Uni qo'shish va ajratish uchun sxemada S tumblari orqali bajariladi. Kuchlanish IIKG dan 1 va 2 klemmlariga beriladi. Ossilloqrafga kuchlanishni o'zgarishini aniqlash uchun R3...R6 kuchlanish bo'lgichining 3 va 4 klemmlariga ulanadi. Tadqiqotlar izolyatorga qarshiliklarni ulanmasdan, qarshilik izolyatorga paralel ulaganda

va qarshiliklarkushma ulanganda o'tkazildi O'lchovlarni natijalar i varasmlarida keltirilgan Nlogammalardan tashqari rasmlardakuchlanishlarni vaqt bo'yicha o'zgarish jadvali keltirilgan




27.6-rasm. Tebranish konturida kuchlanishni o'zgarishi ossillogrammasi va kuchlanishni vaqt bo'yicha o'zgarishi jadvali izolyatorga qarshilik ulanmaganda

#CHANNEL:CH1	0.1882	-0.0784	-0.2196	0.0471
#CLOCK=10.0mS	0.1569	-0.1255	-0.2039	0.0157
#SIZE=523264	0.1569	-0.1412	-0.2196	0.0471
#UNITS:V	0.1882	-0.1569	-0.2039	0.0157
	0.0941	-0.1412	-0.2196	0.0157
-0.1255	0.0941	-0.1569	-0.2039	0.0471
-0.0941	0.0784	-0.1882	-0.0157	0.0157
-0.0941	0.0941	-0.1569	0.0000	0.0157
-0.1255	0.0784	-0.1882	0.0000	0.0471
-0.1255	0.0941	-0.2039	-0.0157	0.0471
-0.0941	0.0784	-0.2039	0.0000	0.0471
-0.0784	0.0941	-0.2196	-0.0157	0.0157
-0.0784	0.0784	-0.2039	0.0000	0.0471
-0.0941	0.0627	-0.0784	-0.0157	0.0157
-0.0784	0.0471	-0.1255	0.0000	0.0157
-0.0784	0.0627	-0.1412	-0.0157	0.0471
-0.0627	0.0471	-0.1569	0.0000	0.0157
-0.0784	0.0157	-0.1412	0.0000	0.0471
-0.0471	0.0000	-0.1569	0.0000	0.0471
-0.0627	0.0157	-0.1882	-0.0157	0.0471
-0.0627	-0.0471	-0.1569	-0.0157	0.0471
-0.0471	-0.0627	-0.1882	0.0000	0.0157
0.1255	-0.0784	-0.2039	-0.0157	0.0157



27.7-rasm. Tebranish konturida kuchlanishni o'zgarishi ossillogrammasi va kuchlanishni vaqt bo'yicha o'zgarishi jadvali izolyatorga paralel qarshilik ulanganda

#CHANNEL:CH1	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0627
#CLOCK=10.0mS	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0627
#SIZE=523264	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0627
#UNITS:V	-0.0784	-0.0157	-0.0784	-0.0471
	-0.0941	-0.0471	-0.0941	-0.0627
0.0000	-0.0941	-0.0471	-0.0941	-0.0471
0.0000	-0.0627	-0.0471	-0.0627	-0.0471
-0.0157	-0.0941	-0.0471	-0.0941	-0.0157
0.0000	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0471
0.0000	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0471
-0.0157	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0627
-0.0157	-0.1255	-0.0157	-0.1255	-0.0627
-0.0157	-0.1255	-0.0157	-0.1255	-0.0627
-0.0157	-0.0941	-0.0157	-0.0941	-0.0784
-0.0157	-0.1412	0.0000	-0.1412	-0.0627
0.0157	-0.1255	-0.0471	-0.1255	-0.0627
-0.0471	-0.1412	-0.0471	-0.1412	-0.0157
-0.0157	-0.1255	-0.0471	-0.1255	-0.0784
0.0000	-0.1255	-0.0471	-0.1255	-0.0627
0.0000	-0.1412	-0.0157	-0.1412	-0.0627
0.0157	-0.0941	-0.0471	-0.0941	-0.0627
-0.0157	-0.1255	-0.0157	-0.1255	-0.0627



27.8-rasm. Tebranish konturida kuchlanishni o'zgarishi ossillogrammasi va kuchlanishni vaqt bo'yicha o'zgarishi jadvali izolyatorga qarshiliklar paralel va ketma-ket ulanganda

	0.1412	0.0471	0.4078	0.3765
#CHANNEL:CH1	0.1412	0.0157	0.3765	0.3765
#CLOCK=10.0mS	0.1569	0.0941	0.4078	0.3765
#SIZE=523264	0.1412	0.1255	0.3765	0.3765
#UNITS:V	0.1412	0.0941	0.3765	0.3765
	0.1412	0.0471	0.3765	0.3608
-0.0157	0.0941	0.0157	0.4078	0.3608
0.0000	0.0941	0.0941	0.3765	0.3765
0.0784	0.1255	0.1255	0.3765	0.3608
0.0471	0.1255	0.0941	0.4078	0.3765
0.0157	0.0941	0.4078	0.3608	0.3451
0.0000	0.0941	0.4235	0.3765	0.3608
0.0157	0.1255	0.3765	0.3765	0.3451
0.0000	0.0941	0.4078	0.3765	0.3608
0.0157	0.1255	0.3765	0.3765	0.3608
0.0471	0.0941	0.3765	0.4078	0.3765
0.0157	0.1255	0.3765	0.3765	0.3608
0.0471	0.1255	0.3765	0.3765	0.3765
0.0471	0.1412	0.3765	0.3765	0.3612
0.0471	0.1568	0.4005	0.3765	0.3167

va qarshiliklar kushma ulanganda o'tkazildi. O'lchovlarni natijalari 27.6, 27.7, va 27.8 rasmlarida keltirilgan. Nlogammalardan tashqari rasmlarda kuchlanishlarni vaqt bo'yicha o'zgarish jadvali keltirilgan.

Olingan natijalar bo'yicha quyidagi xulosalar qilish mumkin. Butun izolyatorlarda kuchlanishni o'zgarishi so'nmaydigan tebranishlar bilan ifodalanadi va kuchlanishni amplitudasi kichik bo'ladi. Izolyatorlar xolati yomonlashgan sari, ularni xajmidan va yuzasidan oqib ketish toklar paydo bo'ladi. SHuning bilan tebranish konturida kuchlanishni o'zgarishi tubdan o'zaradi va uning vaqt bo'yicha o'zgarishi bir biridan fark qiladi. Bularni izolyasiya xolatini aniqlash uchun kompyuterli programma orkali avtomatik aniqlash mumkin. Undan tashqari, xar-xil davrlarda olingan ma'lumotlarni solishtirib, izolyatorlarni ishdan chiqish vaktini aniqlash mumkin.

Keyingi tadqiqotlarida «Hantek» turdagi USB ossillografik pristavkasini boshqa imkoniyatlarini tekshiriladi.

27.4 «Ekspress-diagnostics» usulni iqtisodiy samaradorligini xisobi

Iqtisodiy samaradorligini aniqlash to'g'ri xarajatlar bo'yicha bajariladi. Xisoblarni Parkent tuman elektr tarmoqlar (TET) korxonasi bo'yicha olib borilgan va fakat kabellar sinovlari ko'rib chiqilgan. Tumanda 247 xar xil uzunlikli 10 va 6 kV kabel tarmoqlari mavjud. Ular o'rta xisobda TET korxonadan 12,4 km masofada joylashgan. Xisoblarda mavjud bo'lgan va tadqiq qilingan usul solishtirilgan.

Xisoblarni boshida kapital mablag'larni aniqlaymiz. Internet ma'lumotlari bo'yicha 10 kV li elektrotexnika laboratoriyasini (ETL 10) baxosi $K_1 = 38500$ ming so'm. Tadqiq kilingan moslamani kichik o'lchami sababli, uni "Damas" mikroavtobusga sig'dirish mumkin. Yangi sinash moslamani birinchi nusxasi induksion impulsli kuchlanishlar generatoridan va sharli voltmeterdan tuzilgan. Ularni taxminiy baxosi 345 ming so'm. Bundan yangi sinash moslamani baxosi $K_2 = 12973$ ming so'm.

Ekspluatatsion xarajatlarni quyidagi formuladan topamiz:

$$E_x = T_x + Y_{Ox} + I_x,$$

bunda T_x – ta'mirlashga bir yilda sarflanadigan xarajatlar, so'm/yil;

YO_x – yoqilg'iga bir yillik xarajatlar, so'm/yil;

I_x – bir yillik ish xaqi, so'm/yil.

Ta'mirlash ishlariga ketadigan bir yillik xarajatlarini kapital mablag'lardan 15% qabul qilamiz, bunda:

$$T_{x1} = 0,15 K_1 = 0,15 \cdot 38500 = 5775 \text{ ming so'm,}$$

$$T_{x2} = 0,15 K_2 = 0,15 \cdot 12973 = 1946 \text{ ming so'm.}$$

Bir yilda benzinga ketadigan xarajatlar:

$$YO_{x1} = (B_s/100) 2m \cdot p \cdot B_b = (24/100) \cdot 2 \cdot 12,4 \cdot 247 \cdot 4100 = 6027590 \text{ so'm,}$$

$$YO_{x2} = (B_s/100) 2m \cdot p \cdot B_b = (6/100) \cdot 2 \cdot 12,4 \cdot 247 \cdot 4100 = 1506897 \text{ so'm,}$$

bunda B_s – 100 km masofaga benzinni sarfi;

m – TET korxonadan kabellarga o'rta masofa, km;

p – tumanda kabellarni soni;

B_b – bir litr benzinni baxosi (4100 sum).

Ish xakiga xarajatlarni aniqlaganimizda quyidagilarni xisobga olamiz. Sinash brigadasi "Texnika xavfsizlik qoidalariga" binoan kamida 2 kishidan iborat bo'lishi shart. Undan tashqari shafyorni ish xaqi xam qo'shiladi. Ishlab chiqarish sinovlarni o'tkazishda mavjud bo'lgan sinash usuliga 1,5 soat vaqt sarflandi, yangi usulga esa – 0,2 soat. Bu vaqtlarga sinash joyga borish va qaytish uchun sarflangan vaqtlar qo'shiladi:

$$Y_v = 2m p / V = 2 \cdot 12,4 \cdot 247 / 40 = 153 \text{ soat,}$$

bunda V – avtomoshinani o'rtacha tezligi, 40 km/soat.

Bir yilda ish xaqiga sarflarni xisoblaymiz:

$$I_{x1} = x[(p \cdot t) + Y_v] T = 3[(247 \cdot 1,5) + 153] 2600 = 4083,3 \text{ ming so'm,}$$

$$I_{x2} = x[(p \cdot t) + Y_v] T = 3[(247 \cdot 0,2) + 153] 2600 = 1193,4 \text{ ming so'm,}$$

bunda $x=3$ – xizmatchilar soni;

t – sinovlarga ketadigan vaqt;

$T = 2600$ so'm/soat – bir soatli tarif stavkasi.

Umumiy ekspluatatsiya xarajatlarni topamiz:

$$Ex1 = Tx1 + YOx1 + Ix1 = 5775 + 6027.6 + 4083.3 = 15885.9 \text{ ming so'm,}$$

$$Ex2 = Tx2 + YOx2 + Ix2 = 1946 + 1506.9 + 1193.4 = 4646.3 \text{ ming so'm.}$$

Bir yillik to'g'ri xarajatlarni topamiz:

$$Kx1 = 0.2K1 + Ex1 = 0.2 \cdot 38500 + 15885.9 = 23585.3 \text{ ming so'm,}$$

$$Kx2 = 0.2K2 + Ex2 = 0.2 \cdot 12973 + 4646.3 = 7240.9 \text{ ming so'm.}$$

“Ekspress-diagnostics” usulini yillik iqtisodiy samaradorligini topamiz:

$$YS = Kx1 - Kx2 = 23585.3 - 7240.9 = 16344.4 \text{ ming so'm.}$$

27.3 jadval. “Ekspress-diagnostics” usulini texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Mavjud bo'lgan usul	“Ekspress-diagnostics” usuli
Kapital mablag'lar	Ming so'm	38500	12628
Ta'mirlash ishlariga xarajatlar	Ming so'm	5775	1946
Benzinga ketadigan xarajatlar	Ming so'm	6027.8	1506.9
Ish xaqiga sarflari	Ming so'm	4083.3	1946
Umumiy ekspluatatsiya xarajatlarni	Ming so'm	15885.9	7240.9
Bir yillik to'g'ri xarajatlarni	Ming so'm	23585.3	7240.9
Yillik iqtisodiy samaradorligini	Ming so'm	16344.4	

“Ekspress-diagnostics” usulini iqtisodiy samaradoligi Parkent Tuman elektr ta'minoti korxonasi bo'yicha faqat kabellarni sinashlarda ishlatilsa yillik iqtisodiy samaradorligi 16344.4 ming so'mni tashkil qiladi. SHubxasiz usulni boshqa yukori kuchlanish moslamalarda ishlatilsa iqtisodiy samaradorlik ancha baland bo'ladi.

Ishlatilgan adabietlar ro'yxati

1. Панфилов В. Современные методы и средства инструментального энергоаудита // Главный энергетик, 2004, № 5.
2. Бабич В. Современная техника обследования и мониторинга работы электрооборудования // Главный энергетик, 2004, № 1.
3. Диагностика электрооборудования // Главный энергетик, 2004, № 1.
4. Интеллектуальные счетчики электроэнергии // Главный энергетик, 2004, № 3.
5. Киреева Э.А. Справочные материалы по электрооборудованию (цеховые электрические сети, электрические сети жилых и общественных зданий). — М.: НТФ "Энергопрогресс", 2004.
6. Объем и нормы испытаний электрооборудования / Под ред. Б.А.Алексеева, Ф.Л.Когана, Л.Г.Мамиконянца. — М.: Изд-во НЦ ЭНАС, 2002.
7. Рекомендации по проектированию, монтажу и эксплуатации электроустановок зданий при применении устройств защитного отключения. — М.: Изд-во МЭИ, 2002.
8. Григорьев В.И., Киреева Э.А., Минтюков А.П., Чохонелидзе А.Н. Электроснабжение и электрооборудование жилых и общественных зданий. — М.: Энергоиздат, 2003.
9. Григорьев В.И., Киреева Э.А., Миронов В.А., Чохонелидзе А.Н. — М.: Энергоиздат, 2003.
10. УЗО — устройства защитного отключения: Учебно-справочное пособие. — М.: ЗАО "Энергосервис", 2003.
11. Харечко В.Н., Харечко Ю.В. Устройства защитного отключения. — М.: МИЭЭ, 2002.
12. Киреева Э.А., Юнее Т., Айюби М. Автоматизация и экономия электроэнергии в системах промышленного электроснабжения: Справочные Материалы и примеры расчетов. — М.: Энергоатомиздат, 1998.
13. Львов М. Силовые трансформаторы на ПО кВ и выше. Будущее определит диагностика // Новости электротехники, 2003, № 6(24).

14. Кудрин Б.И. Электроснабжение промышленных предприятий: Учебник для студентов высших учебных заведений. — Интернет Инжиниринг, 2005.
15. Основные направления исследований. Предложения для сотрудничества. Вып.4. — М.: ОАО "ЭНИН им. Г.М.Кржижановского 2001.
16. Установки компенсации реактивной мощности. — С.Петербург: Рекламное издание ОАО "ПО Элтехника", 2004.
17. Каталог ОАО "ПО Элтехника".-С.Петербург, 2005.
18. Воробьев М.Н.. Апольцев Ю.А. Вакуумные выключатели нового поколения и их обслуживание// Электрика, 2003, №1.
19. Трансформатор напряжения типа НАМИТ-10-2 УХЛ2. — ОАО "Самарский трансформатор", 2004.
20. Промышленная автоматика. — НПФ "Электронтехника",2004.
21. Степанов Ю., Овчинников А. Трансформаторы напряжения контроля изоляции 6-10 кВ// Новости Электротехники, 2003, №6(24).
22. Силовые трансформаторы. Каталог Минского электротехнического завода. 2005.
23. Новейшие технологии в мире кабелей. Каталог компании "АББ Москабель". 2003.
24. Каталог ОАО "Электрокабель" Кольчугинский завод", 3-е издание, 2005.
25. Каталог ООО "Усть-Каменогорский конденсаторный завод".2005.
26. Каталог ЗАО "Завод Москабель", 2005.
27. Каталог РК "Таврида Электрик", 2005.
28. Каталог ОАО "Самарский трансформатор",2005 — 10-26
29. Киреева Э.А. Диагностика силовых трансформаторов // Главный энергетик, 2005, № 1.
30. Киреева Э.А. Пути экономии электроэнергии на металлургических предприятиях // Главный энергетик, 2005, № 2.
31. Киреева Э.А. Современные средства измерения показателей качества электроэнергии в системах электроснабжения // Главный энергетик, 2005, № 3


32. Киреева Э.А., Быстрицкий Г.Ф. Регулируемые установки компенсации реактивной мощности // Главный энергетик, 2005, № 4.
33. Киреева Э.А. Современные средства измерения освещенности // Главный энергетик, 2005, №5.
34. Киреева Э.А., Быстрицкий Г.Ф., Калинин Н. Экономическая эффективность частотного регулирования насосов // Главный энергетик, 2005, № 5.
35. Киреева Э.А., Иляков А. Применение защитных мер, обеспечивающих электробезопасность при эксплуатации электрооборудования на примере административно-хозяйственного комплекса (АКХ) // Главный энергетик, 2005, № 7.
36. Киреева Э.А., Быстрицкий Г.Ф. Экономия электроэнергии в системах водоснабжения и канализации // Главный энергетик, 2005, № 8.
37. Григорьев В.И., Киреева Э.А., Миронов В.А., Чохо-нелидзе А.Н. внутрицеховое распределение электроэнергии // Главный энергетик, 2004, №3.
38. Фишман В. Системы РЗ и А и собственные источники электроэнергии // Главный энергетик, 2004, № 2.
39. Григорьев В.И., Киреева Э.А., Миронов В.А., Чохонелидзе А.Н. Приборы и средства диагностики электрооборудования и измерений в системах электроснабжения. Справочное пособие. / Под ред. В.И. Григорьева.— М.: Колос. 2006. — 272 с.

ILOVA


Elektr uskunalarni va elektr ta'minot sistemalarni diagnostika qilish uchun priborlar va moslamalarni rasmlari




Rasm-1. Therma SAM E 25 infrakizil kamerasi




Rasm-2. Vario SAM portativ termografik sistemasi




Rasm-3. Thermo Vision A40-M kompakt infraqizil kamerasi



Rasm-4. TN-7102 WB ikkta spektrli matritsali teplovizori



Rasm-5. VARTO CAM teplovizori



Rasm-6. Vario THERM termografik sistemasi




Rasm-7. VARTOS CAM yuqori anikligiga ega bo'lgan termografik sistemasi




Ris.8. TH7102MX/102WX kompakt infraqizil kamerasi




Rasm-9. C-100 "FAKEL" pirometri




Rasm-10. C-210 "SALYUT" pirometri




Rasm-11. C-300 "FAVORIT"



Rasm-12. C-300,3 "FOTON"



Rasm-13. C-500 "SAMOTSVET"



Rasm-14. CENTER 352

